

# YASHIL INSTRUMENTLAR VOSITASIDA BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11398490>

**Qurbonov Fazliddin Farxod o'g'li**  
**Magistrant, Bank-moliya akademiyasi**

Hozirgi vaqtda kichik biznes uchun tijorat muassasalaridan kredit olishda yetarli yoki yetarli bo'lmagan garov masalasi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Kredit tashkilotlarining kichik biznes subyektlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlamasligining asosiy sabablaridan biri kichik biznes subyekti taqdim yetilgan kreditni o'z vaqtida to'lay olmasligi bilan bog'liq. Garovning yetishmasligi, shu bilan birga tijorat muassasalaridan kredit olishning imkoni yo'qligi aholining tadbirkorlik faolligini pasaytiradi, kichik ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanishini rag'batlantirmaydi. Shuningdek, kichik biznesning kredit olishdagi muammolari ichki va tashqi bo'linadi. Kredit olishda tashqi muammolar:

- moliya institutlari tomonidan kichik biznesga beriladigan kreditlar bo'yicha yuqori foiz stavkalari;
- kreditni to'lash muddatining qisqarishi;
- kredit olish jarayonining murakkabligi, muddati va boshqalar.

Kredit olishni qiyinlashtiradigan ichki muammolar:

- kichik biznes uchun taqdim yetilgan kreditlarning cheklangan soni;
- kichik biznesni kreditlash uchun raqobatbardosh bozorning yo'qligi;
- uning faoliyatining kichik ko'lami, uning holatini baholashning murakkabligi;
- kredit olish uchun biznes-reja tayyorlash sifati;
- kredit tarixining yetishmasligi va boshqalar [1].

Moliya bozori rivojlangan mamlakatlar amaliyotida kichik biznesni rivojlantirishni moliyalashtirishning asosiy manbai kredit tashkilotlarining mablag'lari hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirishda katta ulush tijorat banklari mablag'laridan iborat. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi

shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni investitsiya fondlari bilan ta'minlash uchun samarali moliyaviy infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha faol davlat siyosati zarur. Xorijiy tajribaga muvofiq, kichik biznesni samarali qo'llab-quvvatlash keng vakolatlar, moliyaviy resurslar, butun mamlakat bo'ylab filiallari bo'lgan ixtisoslashgan tashkilot yordamida amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi vaqtda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy qo'llab-quvvatlash usullaridan ko'ra kichik biznesni bilvosita qo'llab-quvvatlash usullari ko'proq qo'llaniladi. Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning eng samarali shakllaridan biri va kichik biznes uchun bank kreditlarining jozibadorligini oshirishga imkon beradigan kafolatlar shakllaridan biridir.

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri bu mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini ustuvor rivojlantirishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Bular tadbirkorlik faoliyatini, nodavlat tashkilotlarni va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlovchi korxonalarni belgilaydigan va kafolatlaydigan huquqiy va me'yoriy hujjatlardir [2].

Ushbu bosqichda biz kimlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik deganda nazarda tutayotganimiz haqidagi savolga oydinlik kiritishimiz kerak, masalan, rus olimi O.L.Vertushkinaning so'zlariga ko'ra: "Kichik va o'rta biznes-bu qonunlar, davlat organlari yoki boshqa vakillik tashkilotlari tomonidan belgilangan muayyan sharoitlarda bozor iqtisodiyoti subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati" [3].

Mahalliy olimlarimizdan H.R.Hamroyev tadbirkorlikka to'g'irisida quyidagi fikrini bildirgan "Tadbirkorlik, ayrimlar o'ylashicha, bozor iqtisodiyotiga o'tish davriga xos o'tkinchi narsa bo'lmay, fundamental tusga ega. Chunki u nafaqat bozor iqtisodiyoti tizimiga, balki barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga xos hodisa. Buning ustiga, iqtisodiyotning nafaqat ajralmas tarkibiy qismi, balki uni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Tadbirkorlikni biznes deb tushunib, ikkalasini ham bitta biznes termini bilan atash mumkin deydi ham uchraydi. Holbuki, tadbirkorlik

tushunchasining mazmun-mohiyati biznes tushunchasidan kengroq va chuqurroq. Faqat tadbirkorlikka asoslangan biznesni tadbirkorlik deyish mumkin. Ammo biznesning hammasi ham bunday tusga ega emas. Bundan tashqari, tadbirkorlik biznes doirasidan tashqarida ham mavjud” [4].

O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq “Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir”.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini amalga oshirish chora-tadbirlariga ko‘ra jalb qilingan davlat tashqi qarzlarini samarali taqsimlash va yashil loyihalarning daromadlilik stavkalarini oshirish siyosatini joriy etish amalga oshirilmoqda. Jalb qilingan tashqi qarzi 2022-yilning yanvar-sentabr oylaridagi bitimlariga muvofiq “Yashil iqtisodiyotga o‘tish” loyihasi Fransiya taraqqiyot agentligi tomonidan 150.0 mln yevro qiymatida, 20 yillik muddatga berildi. Bu loyihani amalga oshirishda tashabbuskor ijrochi o‘rnida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va Moliya vazirligi amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo‘ljallangan Fiskal strategiyasida davlat budjeti xarajatlarini barqaror rivojlantirish maqsadida “Yashil budjet” tamoyillarini ham joriy qilish uslubiyotini ishlab chiqish choralari ko‘rilishi belgilab olingan. Bunga ko‘ra “Yashil budjet” – budjetdan moliyalashtirilayotgan tadbirlarning (xarajatlarning) iqlim o‘zgarishiga, ekologik holatga hamda havoga chiqariladigan zararli gazlarning kamayishiga ta'siri nuq'tai nazardan tasniflashdan iborat [5].

Yevropa Ittifoqidagi 11 ta davlatga “Yashil budjet” joriy etilgan va qolgan davlatlar ham unga o‘tish metodologiyasini ishlab chiqish, hodimlarini o‘qitish va boshqa tayyorgarlik ishlarini boshlagan. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish” loyihasi Fransiya taraqqiyot agentligi tomonidan boshqarilishi tanlab olingani bejizga emas. Sababi Yevropa Ittifoqi davlatlari ichida Fransiya so‘nggi ikki yil davomida “Yashil budjet” yo‘nalishida ilg‘or mamlakat hisoblanadi. “Yashil budjet” tizimini joriy qilish uchun Fransiya taraqqiyot agentligi bilan quyidagi maxsus chora-tadbirlar amalga oshirish rejalashtirilgan [6].

Yashil obligasiyalarga nisbatan yashil sukuklar emissiyasi hajmi kam miqdorda bo'lishiga qaramasdan, yaqinda paydo bo'lgan moliyaviy instrument sifatida yetarli darajada loyihalarni amalga oshirish uchun chiqarilmoqda. Xususan, COVID-19 pandemiya davridan oldin ham yashil va barqaror sukuk 2019-yilda ikki baravardan ko'proq o'sish sur'atini kuzatgan edi. Pandemiya davrida ushbu sukuk emissiyalari o'zining o'sish traektoriyasini davom ettirdi va 2020- va 2021-yillarda yangi rekordlarni O'rnatdi. 2017 –2022-yillar kesimida yashil va barqaror sukuklar emissiyasi bo'yicha ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, pandemiya davriga qadar sezilarli darajada yashil sukuklar emissiyasi amalga oshirilgan va 2019-yilda (3649 million AQSh dollar) eng ko'p miqdordagi emissiyani amalga oshirgan. 2020-yildan keyin ham yashil sukuk emissiya miqdori keskin kamayish kuzatilmadi. O'zining o'rtacha qiymati barqarorligini ta'minlab turdi. Ahamiyatli jihati barqaror sukuk emissiya midori 2017-2019 yillar davomida yashil sukuk emissiya miqdorining o'ndan bir qismiga teng bo'lgan. Bu ko'rsatkich pandemiya davridan so'ng o'zgardi. Barqaror sukuk hajmi 2020-va 2022-yillarda yashil sukuk hajmiga deyarli teng miqdorda emissiya qilingan.

Mamlakatimiz aksariyat qismi musulmon aholidan tashkil topgani sababli, 2030-yilga qadar amalga oshirilishi maqsad qilib olingan yashil iqtisodiyotga o'tish maqsadlarini yashil loyiha instrumentlari, xususan, yashil sukuk emissiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 20.04.2022 yildagi O'RQ-765- son.
2. Tadbirkorlik asoslari: kasb ta'limi (iqtisodiyot) yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'l. H. R. Hamroyev; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: Yangi nashr, 2010. — 360 b.

3. Якубов, В. Г. (2022). Сбыта Продукции Является Важным Фактором Увеличения Прибыли Компаний. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 3(5), 49-55.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 -2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.

5. 2030 yilgacha O‘zRning “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/5805>

6. Mohira Shavkat Qizi Davlatboyeva, Inomjon Turayevich Jumaniyazov Yashil byudjetlashtirish va uni O‘zbekistonda joriy etish istiqbollari // Science and Education. 2023. №2.

7. Jumaniyazov Inomjon To‘rayevich. (2024). ESG IN SOVEREIGN WEALTH FUND INVESTMENTS. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(2), 117–124.

8. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi “2023-2025 yillar uchun Fiskal strategiyasi” [https://admin.openbudget.uz/media/post\\_attachments/2023\\_2025](https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments/2023_2025)